



Bo'sh ish o'rinlari

Yangilangan sana: Chr, Iyun, 13, 2018

O'zbekiston Respublikasi Aksiyadorlik tijorat Xalq banki

bo'sh ish o'rinlariga ishga qabul qilish shartlari va nomzodlarga qo'yiladigan talablar to'g'risida ma'lumot

"O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki tizimida xodimlarni ishga qabul qilish, lavozimlarga bosqichma-bosqich ko'tarish, kasb - malakaviy stajirovkasini o'tkazish, tajriba almashish, teng va yuqori lavozimlarga o'tkazish hamda o'qishga tavsiya etish va o'qish harajatlarini bank tomonidan qoplab berish Tartiblari to'g'risida"gi Xalq banki Boshqaruvining 2017 yil 25 apreldagi 41/3-sonli qaroriga ko'ra bank tizimiga millati, jinsi, irsi, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi va e'tiqodidan qat'iy nazar, tegishli oliy ma'lumotga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ishga qabul qilinadi

Mazkur tartib mutaxassislarni tanlash, ishga qabul qilish, joy-joyiga qo'yish va ularni lavozimlarga bosqichma-bosqich ko'tarish tartibini belgilovchi ichki me'yoriy hujjat bo'lib quyidagi tamoyillarni o'z ichiga oladi:

- mutaxassislarni to'g'ri tanlash;
- mutaxassislarning ma'lumoti, kasbiy tayyorgarligi, mahorati va iqtidoriga muvofiq bo'sh o'rinlarni egallashda teng huquqliligi;
- mutaxassislarni ishga qabul qilishda adolat tamoyillariga rioya etilishi;
- mutaxassislarni lavozimlarga bosqichma - bosqich ko'tarilishi

Bo'sh o'rinlarga oliy iqtisodiy ma'lumotli, yuqori saviyali, iqtidorli xodimlarni ishga qabul qilish amaldagi mehnat qonunchiligi hamda bankning Ichki mehnat tartibi qoidalari asosida amalga oshiriladi. Mutaxassislarni ishga qabul qilish bo'yicha olib borilayotgan ishlarning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- bankning tarkibiy tuzilmalarini talabga javob beruvchi malakali, iqtidorli mutaxassislar bilan butlash;
- zamonaviy talablar darajasiga javob beruvchi boy aqliy va kasbiy salohiyatlarga ega bo'lgan malakali mutaxassislarni tanlash;

Bank Markaziy apparatining tarkibiy tuzilmalarida mavjud bo'lgan bo'sh lavozimlarini butlash ishlari, Xodimlar bilan ish olib borish boshqarmasi tomonidan tarkibiy tuzilmalar rahbarlari bilan hamkorlikda olib boriladi. Tarkibiy bo'linmalar rahbarlari va bank rahbariyati bilan olib borilgan suhbat jarayonida nomzodlar to'g'risidagi ma'lumotlar har tomonlama puxta o'rganib chiqiladi. Nomzodning lavozimga muvofiqligi ko'rib chiqilganda asosiy e'tiborni uning halol va vijdonan mehnat qilishiga qaratgan holda, muayyan mezonlar, xususan, bank texnologiyalari bo'yicha bilim hamda tajriba, oliy ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassislarni ishga qabul qilish yo'li bilan amalga oshiriladi

O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki Markaziy apparati

bo'sh ish joylari mavjudligi to'g'risida ma'lumotlar

No	Lavozimlar nomi	Talab qilinadigan malaka	Talab kilinadigan ma'lumo	Bo'sh ish joylarisoni	Ish haqi
1	Boshqarma boshlig'i	Oliy	Bank ishi, Moliya, Iqtisodiyot	1	Oylik lavozim maoshi shtat jadvaliga asosan
2	Bo'lim boshlig'i	Oliy	Bank ishi, Moliya, Iqtisodiyot	3	Oylik lavozim maoshi shtat jadvaliga asosan
3	Sho'ba mudiri	Oliy	Bank ishi, Moliya, Iqtisodiyot	2	Oylik lavozim maoshi shtat jadvaliga asosan
4	Bosh mutaxassis	Oliy	Bank ishi, Moliya, Iqtisodiyot	2	Oylik lavozim maoshi shtat jadvaliga asosan
	Jami			8	
